O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“Jismoniy tarbiya tizimini rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqboldagi yechimlari”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

2025-yil 17-18- oktabr

CHIRCHIQ-2025

UO‘K-796.03
KBK – 75.726

“Jismoniy tarbiya tizimini rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqboldagi yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida ta’lim sifatiga erishish muhim strategik vazifalardan hisoblanadi. Bunda ta’lim tizimining takomillashtirilishi va unda jismoniy tarbiya va sport sohaning sifat ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy, amaliy va metodik ishlar muhim o‘rin tutmoqda. Shu jihatdan mamlakatimiz ta’lim tizimi va uning boshlang‘ich ta’lim bosqichida tarkib topayotgan nazariy, didaktik va metodik yangilanishlarni tadqiq etish hamda bu borada muayyan yo‘nalishlarni ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Bularning barchasi mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning yo‘nalishlarini tashkil qiladi.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning maqsadi mamlakatimiz ta’lim tizimi va uning boshlang‘ich ta’lim bosqichida tarkib topgan nazariy, didaktik va metodologik innovatsion yondashuvlarni tadqiq etish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Anjumanning asosiy vazifasi ta’lim tizimi va boshlang‘ich ta’lim bosqichida tarkib topgan innovatsion yondashuvlarning milliy tajribalarini ishlab chiqish va uning xalqaro tajribalarini tizimlashtirishdan iborat.

Ushbu to‘plamga kiritilgan maqolalarda keltirilgan xulosa va tavsiyalar anjuman maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, ta’lim tizimi va uning jismoniy tarbiya bosqichini innovatsion yondashuvlar bo‘yicha milliy va xalqaro tajribalari uyg‘unligi asosida rivojlantirishga, bunda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi natijasida ta’lim sifatiga erishishning iqtisodiy imkoniyatlarini belgilashga, ulardan foydalanish mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

To‘plamda berilgan maqolalar haqqoniyligining javobgarligi mualliflar zimmasida.

Tahrir hay’ati:
1. Muxamedov Gafurdjan Israilovich – k.f.d., professor.
2. Eshchanov Baxodir Xudayberganovich – DSc, professor.
3. Tadjibayev Ikram Uralbayevich – DSc, professor.
4. XurvaliyevaTarmiza Latipova – DSc, professor.
5. Abdullayev Abduqayum Abduhavich – PhD, dotsent.
6. Narimbaeva Lola Kuzibaevna – PhD, dotsent.
7. Mutalova Dilnoza Abdurashidovna – PhD, dotsent.
8. Maxmudov Baxrom Abdusalomovich – PhD, dotsent.
9. Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich – PhD, dotsent.

Taqrizchilar:
Muxtor Abenovich Ermekbaev. – p.g‘.n., dotsent M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universitetining “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedra mudiri.
Mardonov Shukurullo Qo`ldashevich – Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” fakulteti, p.f.d., professor.

Anjuman O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining **2024-yil 27-dekabrdagi 490**-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”ning **78-bandiga** asosan o‘tkazilgan.

EKOPEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI MUSTAHKAMLASHDA EKO-STEAM FANLARI VA EKOLOGIK FAOLIYATNI INTEGRATSIYALASH

Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti.

Kirish. Zamonaviy pedagogik amaliyot va ekologik ta’limning integratsiyalashuvi davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-martdagi PF-5702-sonli “Oliy va o‘rta maxsus ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni va 2021-yil 12-iyundagi PQ-5124-sonli qarorida ta’kidlanganidek, ekologik ong va innovatsion pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali talabalarni ijtimoiy mas’uliyat va kreativ tafakkurga yo‘naltirish zarur [1,2]. Ushbu tadqiqotning maqsadi – boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining ekopedagogik kompetentligini Eko-STEAM fanlari va ekologik faoliyatni integratsiyalash orqali tizimli rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashdir. Tadqiqot vazifalari: 1) interfaol va modulli o‘quv metodlarini tahlil qilish; 2) ekologik kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy va amaliy yechimlarini aniqlash; 3) Eko-STEAM integratsiyasining pedagogik samaradorligini baholash. Tadqiqot obyekti – boshlang‘ich va o‘rta ta’limda ekologik ta’lim jarayoni, predmet esa – Eko-STEAM integratsiyasi orqali talabalar ekopedagogik tafakkurini rivojlantirish mexanizmi. Metodologiya interfaol kuzatuvlar, pedagogik eksperiment va modulli dasturlarni o‘z ichiga oladi. Maqola tuzilishi kirish, nazariy tahlil, amaliy tadqiqot, natijalar va xulosalar bo‘limlaridan iborat bo‘lib, har bir bo‘lim ilmiy asoslangan faktlar va sanksiyalangan manbalar bilan boyitilgan.

Natijada Eko-STEAM fanlari va ekologik faoliyatni integratsiyalash orqali boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilindi. Tadqiqotda 464 nafar talaba ishtirok etdi va ular interfaol laboratoriya mashg‘ulotlari, ekologik loyihaviy ishlanmalar va modulli o‘quv dasturlari orqali kuzatildi. Eksperimental natijalar shuni ko‘rsatdiki, Eko-STEAM integratsiyasi talabalarning ekologik bilimlarini chuqur o‘zlashtirish, shaxsiy tashabbus va ekologik mas’uliyatni uyg‘un rivojlantirish imkonini beradi.

Talabalarning ekologik xulq-atvori, kreativ qaror qabul qilishi va ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalari sezilarli oshdi: ekologik tashabbuskorlik va ijtimoiy hamkorlik o‘rtacha 30–35% ga, kreativ va kritik tafakkur ko‘nikmalari esa 27–29% ga yaxshilanishi kuzatildi. Ilmiy metodologiya sifatida pedagogik eksperiment, interfaol kuzatuv, modulli dasturlar va statistik tahlil qo‘llanildi.

Eksperimental natijalar shuni ko‘rsatdiki, Eko-STEAM integratsiyasi ekologik ta’lim jarayonida shaxsiy tashabbus, ijodiy va kritik tafakkur ko‘nikmalarini uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot yangi konseptual yondashuvlar ishlab chiqish va kelajak pedagoglari uchun innovatsion strategiyalar yaratishga imkon beradi. Natijalar xulosasi shuni ko‘rsatadiki, Eko-STEAM integratsiyasi orqali talabalar

ekologik tafakkuri va kompetentligi sezilarli darajada oshadi, bu esa shaxsiy tashabbus, ijodiy va kritik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasida Ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirishda Eko-STEAM fanlari va ekologik faoliyatni integratsiyalash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar STEAM pedagogik yondashuvi va interfaol-modulli metodologiyalar orqali ekologik tafakkur, kreativ qaror qabul qilish va ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. A.Y. Kuchkinov [3,4], Tilavova S.B. [5,6] modulli o‘quv dasturlari va interfaol laboratoriya mashg‘ulotlari orqali talabalar ekologik kompetentligini tizimli shakllantirish mexanizmlarini tadqiq qilgan. Qudratova Sh.B, Atenov J.D, Normurodov Sh.Z. [7] ekologik faoliyat va STEAM fanlarini integratsiyalash orqali ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish konsepsiyasini taklif qilgan. Azadovna A.Q. [8] va Urinova N.Sh.[9] interfaol ta’lim texnologiyalari yordamida shaxsiy tashabbus va ekologik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlashga oid metodologik tadqiqotlarni olib borgan. To‘raqulov A.R. [10] esa modulli ekopedagogik dasturlarni amaliy sinovdan o‘tkazish va ekologik tafakkur indikatorlarini baholashga qaratilgan eksperimental yondashuvni ishlab chiqqan. Tadqiqot metodologiyasi pedagogik eksperiment, interfaol kuzatuv va modulli dasturlar tahlili orqali ekologik kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy asoslarini yaratadi, shu bilan birga yangi konseptual yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

Muhokamada natijalari Eko-STEAM fanlari va ekologik faoliyatni integratsiyalash talabalarning ekopedagogik kompetentligini tizimli rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari mavjud ilmiy izlanishlarni boyitib, ekologik kompetentlikni shakllantirishda yangi konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini berdi. Masalan, ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar faqat STEAM fanlarining individual pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilgan bo‘lsa, ushbu ish Eko-STEAM fanlari va ekologik faoliyatni integratsiyalash orqali talabalar ekologik tafakkurini kompleks rivojlantirish mexanizmlarini aniqladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u ekologik ong, kreativ qaror qabul qilish va ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik strategiyalarni tasdiqlaydi. Metodologik yondashuvlar va natijalar asosida yangi ilmiy konseptlar ishlab chiqish, ekologik ta’lim jarayonida interfaol va modulli ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish mumkinligi isbotlandi. Shu bilan birga, muhokama qilingan natijalar kelajak pedagoglari uchun amaliy va nazariy tavsiyalarni shakllantirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Eko-STEAM fanlari va ekologik faoliyatni integratsiyalash orqali talabalar ekopedagogik kompetentligini samarali rivojlantirish mumkin. Interfaol metodlar, modulli dasturlar va ekologik loyihalar shaxsiy tashabbus, kreativ va tanqidiy tafakkur hamda ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalarini oshirdi. Natijalar ekologik konseptual bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va muammolarni integrativ yondashuv bilan hal qilish imkoniyatini berdi, shuningdek, kelajak pedagoglarining ekologik tafakkurini tizimli shakllantirishga ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-5702-son, 11 mart 2019 yil. “Oliy va o‘rta maxsus ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Tashkent: Prezident matbuot xizmati, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. PQ-5124-son, 12 iyun 2021 yil. “Ta’lim sifatini oshirish va ekologik ongni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Tashkent: VM nashriyoti, 2021.

3. Kuchkinov A.Y. The interdisciplinary approach to developing eco-steam educational competencies. // JournalNX - a Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. https://webofjournals.com/index.php/4/article/view/2320/2300

4. Kuchkinov. A.Y. Integrasiyalashgan steam ta’lim texnologiyasining uzluksiz ta’limning asosiy muhitini yaxshilash va pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishdagi samaradorligi. // Akademic Journal of Educational Research (AJER) International scientific journal. – 2024. – № 6. – pp. 3-8.

5. Tilavova S.B. Bo’lajak boshlang‘ich ta’lim o’qituvchilarining ekologik bilimlarini konseptual tamoyillar asosida takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent: “ZEBO PRINTS”. 2023. – B. 124.

6. Tilavova S.B. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini STEAM-yondashuv vositasida takomillashtirish. // “Pedagogika” ilmiy metodik jurnali. – 2023. - 2-son. – B 146-149.

7. Qudratova Sh.B., Atenov J.D., Normurodov Sh.Z. Boshlang‘ich ta’limda STEAM ta’lim texnologiyasi fanining umumiy asoslari, predmeti va vazifalari // CyberLeninka. – 2025.

8. Azadovna A.Q. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining STEAM ta’limi orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish usullari // CyberLeninka. – 2024.

9. Urinova N.Sh. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari: Boshlang‘ich ta’limda STEAM texnologiyasi // Worldly Journals. – 2025

10. To‘raqulov A.R. STEAM ta’lim tizimi afzalliklari // UzResearchers. – 2025

TIL VA TAFAKKUR MUNOSABATI

Ziyadullayeva Dilafro’z Narzullayevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o’qituvchisi.
Jangaboyeva Guljahon, Sharipova Sevara, Xo‘jamurodova Bahor
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs 24/8-guruh talabalari

Til va tafakkur masalasi qadimdan falsafa va tilshunoslikning markaziy mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Bu ikki hodisa bir-biridan ajralmas bo‘lsa-da, mutlaqo bir xil tushuncha emas. Tafakkur — bu insonning ongli ravishda voqelikni aks ettirish va bilish qobiliyati

talabalar ekologik tafakkurini rivojlantirish: innovatsion pedagogik yondashuvlar.	
M. T. Zayniddinova. Badiiy asarning kompozitsion tuzilishi va unsurlarini tahlil qilish.	580
M. T. Zayniddinova, K. A. Muminova, S. A. Ibragimova, D. O‘. Turdiqulova. Sinfdan tashqari o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarda badiiy asarni tahlil qilish malakasini rivojlantirish.	584
M.T.Zayniddinova, S.D.Allaberganova, G.E.Bulakova, D.Sh.Nuraliyeva. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matnni tahlil qilishning metodik va uslubiy shartlari	588
Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich. Ekopedagogik kompetentlikni mustahkamlashda eko-STEAM fanlari va ekologik faoliyatni integratsiyalash.	591
Ziyadullayeva Dilafro‘z Narzullayevna, Jangaboyeva Guljahon, Sharipova Sevara, Xo‘jamurodova Bahor. Til va tafakkur munosabati.	593
Mutalova Dilnoza Abdurashidovna. Chet tillarni o‘qitishda madaniyatlararo muloqot muammosi.	596
X. Gulyamova, R. Jumanazarova, N. Qo‘qonova, S. O‘rinboyeva, F. Fayzullayeva. O‘quvchilarning yozma bog‘lanishli nutqini o‘stirishda bayonning ta’limiy ahamiyati.	599
S.X.Mumindjanova. Oliy ta’limda rus tili o‘qitish jarayonida muammoli ta’lim texnologiyalarining amaliy tatbiqi	601
Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy ishlarga tayyorlashning mohiyati.	604
Haydarova Gulruh Muxammadaminovna, Omonova Farangis, Raxmonberganova Ozoda. Fonetika va uning o‘zbek tilshunosligidagi ahamiyati.	607
Haydarova Gulruh Muxammadaminovna, Mohiniso Oltiboyeva Tolibjonovna. Jamiyat ma’naviy yuksalishida yosh avlod tarbiyasining o‘rni	611
Norbo‘tayeva Iroda Yunusovna,Meliqulova Zahro, Abdug’aniyeva Laylo, Bazarbayeva Hosila, Mamatqulova Zuxra. Oila-ekologik tarbiyaning poydevori	614
Norbo‘tayeva Iroda Yunusovna. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik bilimlarni shakllantirish	616
Norbo‘tayeva Iroda Yunusovna,Madrimova Maryamjon Mars qizi, Abdullayeva Shahzoda Dilshod qizi. Boshlang‘ich sinflarda sifat o‘qitish metodikasi	620
Norbo‘tayeva Iroda Yunusovna, Atadjanova Sayyora Sarvar qizi, Abdukarimova Shaxzoda Said qizi, Suvonova Gulshirin. Yosh avlodda atrof-muhitga o`rgatish yo‘llari	623
Norbo‘tayeva Iroda Yunusovna, Abdullayeva Shahzoda Dilshod qizi, Eshnazarova Farangiz,Asadullayeva Nilufar. O‘qish savodxonligi darslarida ekologik tarbiya	629
Raximova Nuquljon Yusupova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish modeli.	631